

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

Ro'yatga olindi
№ 40-AL 3-13
2023 yil



“Xorijiy til (Fransuz tili)”
yoʻnalishi boʻyicha akademik litseylar pedagog xodimlarini
malakasini oshirish kursining oʻquv dasturi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

OLIIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL
ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY
MARKAZI

Malaka oshirish kursining o'quv dasturi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2023 yil 14.08. dagi 4 - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan

Tuzuvchilar: Tayanch modullari: katta o'qituvchi U.Umirzakov

Taqrizchi: f.f.n., prof. Yuldashev M.M.

Xorijiy ekspert: Alekseeva Yelena Albertovna f.f.d, professor, Voronej davlat universiteti, fransuz tili kafedrası mudiri (Rossiya Federatsiyasi).

O'quv dasturi Samarqand davlat universiteti Kengashining qarori bilan tasdiqla tavsiya qilingan (2023 yil _____dagi _____ - sonli bayonnomasi).

KIRISH

Dastur O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23-sentyabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3-dekabrda "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4910-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2022

1-iyundagi "Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi 296-son Qarorida belgilangan ustuvor yo'nalishlar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda akademik litseylar pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan tayanch modullari mavzulari orqali akademik litseylarda faoliyat olib borayotgan pedagog xodimlarning ingliz tilidan til aspektlari amaliyotiga oid zamonaviy yondashuvlarni o'zlashtirish, til ko'nikmalarida kommunikativ yondashuv ahamiyatini tahlil etish va baholash, madaniyatlararo muloqot kompetensiyasining asosiy yo'nalishlaridan samarali foydalanish darajasini oshirish hisobiga ularning pedagogik mahorat va kasbiy kompetentligini muntazam takomillashtirish bilan birgalikda pedagog xodimlarning ehtiyojlari asosida tanlab olingan tanlov modullari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari ta'minlanadi.

Malaka oshirish kursining o'quv dasturi quyidagi tayanch modullar mazmunini o'z ichiga qamrab oladi:

1.1. Tilni o'qitishda foydalaniladigan aspektlar amaliyoti kompetensiyasi.

1.2. Til ko'nikmalarini o'qitishda kommunikativ yondashuv metodi

1.3. Lingvomadaniy muloqotni amalga oshirish layoqatining asosiy yo'nalishlari.

1.4. Modulga oid dolzarb mavzular tahlili.

1.5. Yakuniy nazorat

Kursning maqsadi va vazifalari

Akademik litseylar pedagog xodimlarining malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog xodimlarning o'quv-tarbiyaviy jarayonlarini yuqori ilmiy-metodik darajada ta'minlashlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam yangilash, kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratining uzluksiz rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

Kursning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

- pedagog xodimlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlantirish;

- pedagoglarning zamonaviy talablarga mos holda akademik litseylardagi o'qitish sifati va samaradorligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan kasbiy mahorat darajasini oshirish;
- o'qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish hamda ulardan o'quv jarayonida samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish;
- o'quv jarayonini ilm-fan va ishlab chiqarish bilan samarali integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetentligiga qo'yiladigan talablar:

Kurs yakunida tinglovchilar quyidagi yo'nalishlarda bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- fransuz tilining grammatik strukturalarini;
- uning grammatikasi model va strukturalarining o'ziga xos xususiyatlarini;
- tilning lug'at boyligini oshirish manbalarini;
- kasbiy va akademik terminologiyani;
- muloqotda tilning grammatik va leksik strukturalarini qo'llash, farqlay olish va ularni og'zaki va yozma nutqda to'g'ri ishlatishni;
- mulokot jarayonida turli kommunikativ vaziyatlarni to'g'ri o'zlashtirishni;
- lingvomadaniy aloqalarning turlari va ularning xususiyatlarini;
- lingvomadaniy muloqot nazariyasining ob'ekti va tadqiqot predmetini;
- lug'at boyligining leksik ulushlar nazariyasi (leksema, senema, leksik tushuncha, leksik fon, ezoterik va ekzoterik ulushlarni);
- umumlashgan tajriba, konseptual metaforikalarni;
- kommunikativ faoliyat va birliklar (muloqot hodisalari, muloqot akti, matn va diskurs)ni *bilishi* kerak.

Tinglovchi:

- fransuz tili grammatikasining o'ziga xos xususiyatlarini ajrata olish va ularni o'zlashtirish uchun o'z ona tilining grammatik tizimi bilan taqqoslash;
- berilgan matnning audio formatda tinglab uning asosiy g'oyasini tushuna olish;
- leksik birlik va iboralarini muloqotning turli vaziyatlarida ishlata olish (muloqotga kirishish uchun so'z navbati olish, vaqtdan yutish maqsadida muqaddima va xulosaga oid iboralarini ishlatish kabi);

- fransuz tilining lug'at boyligini oshirish uchun manbalar (lug'atlar, registrlar, so'z ko'rsatkichlari va boshqalar) dan foydalana bilish;
- kontekstual metod asosida so'zlarni o'rganish;
- og'zaki nutqda qo'llaniladigan leksik birlik va iboralarining ko'chma va to'g'ri ma'nosini bilish va to'g'ri qo'llash;
- ma'lum vaziyat muhokamalarida tegishli izohlar, argumentlar va sharhlar bergan holda o'z fikrini ifodalashi;
- lingvomadaniy muloqot nazariyasining maqsad va vazifalarining mazmun mohiyatini yoritish;
- gap tahlilini amalga oshirishda semasiologik va onomasiologik metoddan foydalanish;
- o'zining til ko'nikmalarini rivojlantirish borasidagi faoliyatini baholay olish va refleksiya ko'nikmalarini qo'llay olish;
- lingvomadaniy muloqot nazariyasining ob'ekti va tadqiqot predmetini tahlil etish;
- yozma va og'zaki nutkda uchraydigan turli janrlarning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etish va baholash bo'yicha *malaka* va *ko'nikmalarga* ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- o'zida o'z kasbiga chuqur hurmat hamda o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini rivojlantirishi;
- fransuz tili grammatikasining o'ziga xos xususiyatlarini ajrata olishi va tahlil qila bilishi;
- fransuz tilini o'qitishda zamonaviy o'qitish metodlaridan samarali foydalanishi;
- lingvomadaniy aloqalarning turlarini ajratish va ularning xususiyatlarini o'zlashtirishi;
- fransuz tilini o'qitishda ilg'or xorijiy tajribalarni amaliyotda qo'llash *kompetensiyalariga* ega bo'lishi lozim.

Kursning hajmi

Malaka oshirish kursi 8 kredit (48 soat)ni tashkil etadi. Bunda o'quv dasturining 4 kredit (24 soat)ga mo'ljallangan tayanch modullari ishdan ajralgan holda qayta tayyorlash va malaka oshirish mintaqaviy markazlarida o'qish orqali hamda ishdan ajralmagan holda mustaqil malaka oshirish shakllarini bajargan holda kamida 4 kredit yig'ish orqali amalga oshiriladi. Mustaqil malaka oshirish shaklida pedagog xodimlar tanlov modullarini o'zlashtirish orqali hamda so'ngi bir yilda bajargan kasbiy faoliyat natijalari bo'yicha kreditlar yig'ib boradilar. Malaka

oshirish davomida kamida 8 kredit birligini to'plagan pedagog xodimlarga QR-kod tushirilgan elektron shakldagi sertifikat taqdim etiladi.

“FRANSUZ TILI” YO'NALISHI BO'YICHA MALAKA OSHIRISH KURSI TAYANCH O'QUV MODULLARINING MAZMUNI

1.1. Tilni o'qitishda foydalaniladigan aspektlar amaliyoti kompetensiyasi.

O'quvchilarni o'qitishda ulardagi qobiliyatni va iqtidorni yuzaga chiqarish hamda ularning til o'rganishiga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish. Fransuz tilining grammatik strukturalari (sodda, murakkab va qo'shma gaplar va h.k.) ni muloqotda qo'llash. Fransuz tilining o'ziga xos xususiyatlarini farqlay olish, ularni og'zaki va yozma nutqda to'g'ri ishlatish va ularni yaxshi o'zlashtirish uchun o'z ona tili tizimi bilan taqqoslash. Leksik birlik va iboralarining ko'chma va to'g'ri manosini bilishi va to'g'ri qo'llash. Lug'at boyligini oshirish uchun manbalar (lug'atlar, registrlar, so'z ko'rsatkichlari va boshqalar). Frazologik birliklar, fe'llar. So'z yasashining o'ziga xos xususiyatlari.

Kasbiy va akademik terminologiya. Leksik birlik va iboralarini kontekstga mos bo'lgan holda o'rgatish. Og'zaki va yozma nutqni o'rgatishda turli janrlarning o'ziga xos xususiyatlari (masalan, ilmiy-ommabop asarlar, gazeta maqolalari, badiiy adabiyot va b.). O'zaro leksik munosabat (lingvistik omillarning qo'llanilishi). Rasmiy, norasmiy, maxsus matnlarda so'zlar mutanosibligi.

1.2. Til ko'nikmalarini o'qitishda kommunikativ yondashuv metodi

Fransuz tildagi matnning tinglab uning asosiy g'oyasini anglay olish. Matnning audio formatda tinglab, undagi muayyan ma'lumotni (masalan, sanalar, ismlar) farqlash. Muloqot jarayonida so'zlashuvchining kayfiyati, hissiyotlari va munosabatini aniqlay olish. Turli kommunikativ nutq vaziyatlarini to'g'ri o'zlashtirish. Ma'lum bir vaziyatda o'ziga yoqqan va yoqqan narsalar, jihatlarni haqida fikrini bayon etish. O'zi haqida shaxsiy ma'lumotlarni bera olish. Suhbatdosh bilan muloqotni davom ettira olish. Suhbatdoshdan intervyu olish va savollarga javob qaytarish. Tanish mavzularda muhokamalarda qatnashish. Suhbatdosh bilan muloqotda so'zlovchining nutqini bo'lmasligi yoki bo'lishga dialoglarda ishtirok etib, ma'lumot almashish. Tegishli intonatsiya va urg'udan foydalanib hissiyotlarini ifoda eta olish. Turli mavzularda davomiy muloqotga kirishish. Avvaldan tayyorlangan holda yoki tayyorgarliksiz intervyu olib borish, ma'lumotlarni tekshirish va tasdiqlash, qiziqarli javoblarga e'tibor qaratish. Muhokamalarda tegishli izohlar, argumentlar va sharhlar bergan holda o'z fikrini bayon qilish va uni himoya qilish. Ma'lum mavzularda batafsil hisobotlar

tayyorlash. Yangiliklar, intervyu yoki hujjatli filmlardan parchalar mazmunini qisqacha bayon etish. Rasmiy vaziyatlarda dolzarb mavzular bo'yicha o'z nuqtai nazarini ifoda etish. Munozaralarda asosiy ma'ruzachi sifatida ishtirok etish.

1.3. Lingvomadaniy muloqotni amalga oshirish layoqatining asosiy yo'nalishlari.

Lingvomadaniy aloqalarning turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari. “Lingvomadaniy muloqot” tushunchasining ta'rifi. Lingvomadaniy muloqot nazariyasining maqsad va vazifalari. Lingvomadaniy muloqot nazariyasining ob'ekti va tadqiqot predmeti. Leksik sathning milliy-madaniy xususiyati (realiyalar, fon leksikasi, lakunalar). Tilning lug'at boyligida leksik ulushlar nazariyasi (lesema, semema, leksik tushuncha, leksik fon, ezoterik va ekzoterik ulushlar). Leksik tahlilni semasiologik va onomasiologik jihatdan amalga oshirish. Umumlashgan tajriba.

1.4. Modulga oid dolzarb mavzular tahlili.

Tinglovchilar mustaqil ravishda o'quv modulining dolzarb masalalarini tahlil etib, ularni hal etish usullari to'g'risida fikr-mulohazalar yuritadilar.

Yakuniy nazorat.

Yakuniy nazorat tayanch modullari mazmunidan kelib chiqib onlayn test sinovlari asosida tashkil etiladi. Onlayn test sinovlarida 60 foizdan yuqori natijaga erishgan tinglovchilarga tayanch modullarini to'liq o'zlashtirgan hisoblanadi va ularga 4 kredit ajratiladi.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda tinglovchilar o'quv modullari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keystar, o'quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog'liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajaradilar.

Amaliy mashg'ulotlar zamonaviy ta'lim uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda o'tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o'quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

Ishdan ajralmagan holda mustaqil malaka oshirishni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Mustaqil malaka oshirish o'quv-metodik va ilmiy-pedagogik faoliyat hamda mustaqil tajriba o'tirish natijalariga ajratilgan kreditlarni yig'ish orqali amalga oshiriladi. Kasbiy faoliyat turlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: xorijiy mamlakatlarda malaka oshirish, stajirovka o'tash; iqtidorli va iste'dodli o'quvchilar

bilan ishlash; ilmiy anjumanlarda ma'ruza bilan qatnashish; ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish; o'quv adabiyotlari (hammualliflikdagi darslik, o'quv qo'llanma)ni tayyorlash va nashrdan chiqarish. Mustaqil tajriba o'tirishda akademik litseylar pedagog xodimlari o'z ehtiyojlari va tanlovlaridan kelib chiqib, onlayn shakldagi tanlov modul dasturlarini o'zlashtiradilar. Mustaqil malaka oshirish shakli bo'yicha so'nggi bir yilda to'plangan kredit birliklari malaka oshirish natijalarini umumlashtirishda hisobga olinadi. Pedagog xodimlarning mustaqil malaka oshirish natijalari elektron portfolio tizimida o'z aksini topadi.

Dasturning axborot-metodik ta'minoti

Modullarni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallar, tegishli soha bo'yicha ilmiy jurnallar, Internet resurslari, multimedia mahsulotlari va boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: "O'zbekiston", 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. – T.: "O'zbekiston", 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – T.: "O'zbekiston", 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.
7. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 26 sentyabr "Oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maksadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3290-sonli Qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabr "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmoni.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida"gi PQ - 1875- sonli qarori.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrda "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4910-son Qarori.
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 1 iyundagi "Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzduksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida" 296-son Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

15. Le DALF -100 % Reussite C1-C 2 Les Éditions Didier, Paris 2017 - ISBN 978-2-278-08794-5

20. JE PARLE FRANÇAIS - Niveau DALF C1 EDITIONS T TEGOS
DIPLOMES - CECRL www.editionstegos.com. 2020.
21. Bonvallet S., Bara S., (2011) Ecritures créatives, Grenoble, PUG
22. Estéoule-Exel, M.-H., Regnat S. (2008) Livres ouverts, Grenoble, PUG
23. Rajkumar J. (2021), Les ateliers d'écriture ou comment progresser dans l'écrit. Ecrire en écrivant, Ellipses
24. Shawky-Milcent, B. (2016), La lecture, ça ne sert à rien ! Usages de la littérature au lycée et partout ailleurs..., Paris, PUF (2017)
25. **Guide pédagogique** Les Editions Didier, 2019.
- IV. Internet saytlar**
22. CECRL www.editionstegos.com.
23. www.editionsdidier-durable.fr

"ISHLAB CHIQILGAN":

Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni ta'minlash Bosh ilmiy-metodik markazi

Direktor: T.T. Shoyimardonov

M.O'.

Bo'lim boshlig'i: F.T. Esanboboev

2023 y.



Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Rektor: R.I. Xalmuradov

2023 y.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi

Direktor: F.T. Esanboboev

2023 y.

